

KOVRAK O'SIMLIGINING BIOLOGIYASI VA TABOBATDAGI O'RNI

Aziza Jo'ranazarova Qurbonboy qizi

*Termiz Agrotexnologiya va innovatsion
rivojlanish instituti birinchi bosqich magistranti.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola qadim- qadimdan ko'pgina dardlarga shifo bo'lib kelayotgan Kovrak (Ferulla. L) o'simligining biologiyasi, xalq tabobatida tutgan o'rni, dorivorlik xususiyatlari haqida bayon qiladi. Bu o'simlik himoyasi uchun qilinayotgan ishlar va undan oqilona foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlar, shuningdek Kovrak o'simligidan foydalanish davomiyligini taminlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-apreldagi " Respublikada kovrak plantatsiyalarini tashkil etish va ularning xom – ashyosini qayta ishlash hajmlarini ko'paytirish hamda eksport qilish chora – tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3617 Qarori asosida kovrak plantatsiyalarini tashkil etish va ularning xom-ashyolarini qayta ishlash uyushmasi tashkil etilganligi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Ferula.L. , O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10- apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida " gi PQ – 4668 sonli qarori , O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-apreldagi " Respublikada kovrak plantatsiyalarini tashkil etish va ularning xom – ashyosini qayta ishlash hajmlarini ko'paytirish hamda eksport qilish chora – tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3617 Qarori, Apiaceae, Qizil kitob, E.P. Korovin, fitoterapiya, fitoprofilaktika, Abu ALI Ibn Sino, monokarp, polikarp, sympodial, yelim-smola, mezokarp , tefestrol , penoferol. Ali Ibn Sino aytganidek " Dori-darmonlarni tabiatdan izlang, inson izlayotgan narsani u allaqachon yaratgan.*

O'zbekistonda o'simliklar dunyosi juda boy va xilma-xildir. Bu flora orasida albatta dorivor o'simliklar ham talaygina topiladi. Insonda uchraydigan barcha kasalliklarni davolashda dorivor o'simliklarning o'rni beqiyosdir. So'nggi yillarda turli xil kasalliklarni davolashda xalq tabobatiga murojaat qilish ancha o'sib bormoqda. Shu sababli tabiiyki xalq tabobatini rivojlantirishga ham e'tibor kuchaydi. Buni birgina O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10- apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida " gi PQ – 4668 sonli qarori ijrosini taminlash misolida ham ko'rishimiz mumkin. Xalq tabobatida keng qo'llaniladigan o'simliklardan biri bu Kovrak turkumi vakillari hisoblanadi. Xalq tabobatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan fitoterapiya va fitoprofilaktikada bu o'simlikning o'rni beqoyosdir. Ferullaning dorivorlik xususiyati juda yuqori bo'lgani sababi so'nggi yillarda unga ehtiyoj anchagina oshdi. Kovrak o'simligidan foydalanish davomiyligini taminlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-apreldagi " Respublikada kovrak plantatsiyalarini tashkil etish va ularning xom – ashyosini qayta ishlash hajmlarini

ko'paytirish hamda eksport qilish chora – tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3617 Qarori asosida kovrak plantatsiyalarini tashkil etish va ularning xom-ashyolarini qayta ishlash uyushmasi tashkil etilgan. Kovrak(FERULA. L)

ziradoshlar(Apiaceae) oilasiga mansub o'simlik hisoblanadi. Kovrakning yer yuzida 160 (ayrim manbalarda 185dan) ortiq, O'rta Osiyoda 104ta, mamlakatimizda esa 45ta turi uchrashi qayd erilgan. SHundan 5 ta turi " Qizil Kitob"ga kiritilgan bo'lib ular quyidagilar: archa kovrak, nor kovrak, sunbul kovrak, tugunakli kovrak va qizilqum kovragi hisoblanadi. (E.Abdunazarov.) Ferula L. turkumi turlari - ko'p yillik, o'tsimon, geofit o'simlik. Mavsumiy rivojlanish ritmi bo'yicha ular efemeroidlardir. Ya'ni o'simlik har yili bahorda qisqa vegetatsiya davrida o'sib, rivojlanadi, havo harorati, tuproq o'simlik o'sishini tormozlagan paytlarda yoz, kuz va qish oylarida atmosfera yog'ingarchiligi kam davrda tinch holga kiradi⁶

O'simlikning hayotiy sikli o'tashiga ko'ra E.P. Korovin (1940) bu turkum vakillarini 2 guruhga: monokarp va polikarp turlarga ajratadi. Monokarp turlar o'tsimon o'simliklar orasida unchalik ko'p uchramaydigan original turlar hayotiy formasi hisoblanadi. Bunga Narthex, Mervia hamda Euferula kenja turkumining ba'zi vakillari kiradi. Qolgan turlarning barchasi polikarp turlardir. Monokarp turlarda asosiy novdaning o'sishi monopodial tarzda bo'ladi: dastlabki 5-6-yillarda qisqa vegetatsiya davrida faqat to'pbarglar hosil qilib, gullash va urug'lash yilida esa yer ustki ortotrop poya hosil qiladi. Bu poya (novda) polisiklik kategoriyasiga kirib, o'simlik esa yarim to'pbarg hosil qiluvchi guruhga kiradi. Ular asosan bir, ba'zi hollarda, poya shikastlanganda 2 tadan 6 tagacha generativ novda hosilqiladi⁷.

Polikarp turlarda [simpodial shoxlanish kuzatilib](#), keyinchalik yer osti poyadan hosil bo'lgan kurtaklaridan yangi vegetativ novdalardan generativ novdalar hosil bo'ladi (Nechayeva b., 1963). Shuning uchun bu o'simliklarda murakkab ildizpoya shakllanadi. O'simlikning yer ostki organlari oziq moddalarini zaxira (zapas) holda saqlaydigan ildiz va ildizpoyadan iborat bo'lib, ular tunganaksimon yo'g'onlashgan⁸. O'simlik poyalarining balandligi har xil: gigant-poyasi 3 metr- gacha etadigan turlardan (F. gigantea, F. foetida, F. penninervis, F. kuhistnica, F. malocophilla, F. varia, F. sumbul) tortib, past (karlik) - bo'yi atigi 30 sm ga yetadigan turlar (F. karataviensis, F. nuda) ham uchraydi. Har bir turning balandligi ob-havo, ekologik sharoitga qarab ham o'zgarib turadi Kovrak turkumining mamlakatinizda eng keng tarqalgan turlari sassiq kovrak va ko'histon kovragi hisoblanadi. Sassiq kovrakning bo'yi 1metrga yetadi, ildizi sholg'omsimon, diametri 15 smcha keladi. Poyasi tik , yo'g'on , ichi kovok, yuqori qismi shoxlangan. Ildizoldi barglari bandli 3 bo'lakli, poyadagilari maydaroq, ketma- ket joylashgan. To'pguli yirik sharsimon, diametric 20 sm, yon to'pgullari maydaroq. Erta

⁶ (Nechayeva b., 1973; Burigin va b., 1975).

⁷ (Nechayeva va b., 1963; Markova, 1970; Rahmonqulov, 1999).

⁸ Fedorov va b., 1962; Markova va b., 1968; Rahmonqulov, 1999).

bahorda mart – aprelda gullaydi. Gullari ikki jinsli yoki faqat changchili oddiy soyabongulda joylashadi. Gulkosabarglari tishsiz yoki faqat qipiq holida tez to'kilib ketadigan. Gultojibarglari 1 dan 4 mm gacha uzunlikda, sarg'ish yoki och sarg'ish, oqish rangli, butun (qirilmagan) uchki qismi buralgan, elliptik, teskari tuxumsimon, lansetsimon, uchi to'mtoq [yoki uchli](#), asosan tuksiz, ba'zan tashqi tomoni tukli bo'ladi. Changchisi 5 ta, urug'chisi 1 ta, ikki meva bargdan iborat. Tugunchasi 2, ayrim hollarda 3 uyali. Changchisi 0,5-0,8 mm uzunlikda, ellipssimon, sarg'ish, jigarrang va binafsha ranglarda. Chang donachalari 3 pushtali uzunchoq ellipssimon. Mevasi aprel-mayda pishib yetiladi. Mevasi ikki bo'lakli qo'shaloq. Cho'llarda uchraydi. Mevalari tashqi qismidan siqilgan, yapaloq yoki biroz egilgan. Tashqi tomondagi qobirg'alari ipsimon, chekka qirralaridagisi qanotchasiimon. Karpofori erkin, ikki bo'lakli. Mezokarp ikki qavatli, ichki qavatli yog'ochlangan parenxima hujayralar (gipendokarpiy) dan iborat Sassiqli kovrakning yelim-smolasi qadimdan xalq orasida turli kasalliklarni davolashda foydalanib kelingan. Kovrakning yelim-smolasi xalq tabobatida tomir tortishi, o'pka sili, o'lat, zaxm, ko'k-yo'tal, tish og'rig'i, asab va boshqa kasalliklarni davolash uchun, hamda quvvat beruvchi, balg'am ko'chiruvchi va gijja haydovchi dori sifatida qo'llaniladi.

Kovrakning juda yosh novdalarini yanchib, qatiqqa qorib xavfli shishlar va zaxmga davo qilinadi. Yelim-smola tindirmasi (nastoykasi), emulsiya va xabdori holida astma, tomir tortish va asab kasalliklarida ishlatiladi.

Ilmiy meditsinada kovrak yelim-smolasi – “assa fetida” nomi bilan kukun, emulsiya va tindirma (nastoyka) holida og'riqli qoldiruvchi, balg'am ko'chiruvchi, yel haydovchi, quvvat beruvchi va tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi va ko'pgina davlatlar farmokopeyasiga kiritilgan.

Sharq mamlakatlarida Eron, Pokiston, Afg'oniston va Hindiston kovrak shirasi va ildizi oziq-ovqat sanoatida ziravor sifatida, kosmetika sanoatida attorlik vositalari ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Buyuk tabib Ibn Sinoning fikriga ko'ra, «Kovrak urug'ining qaynatmasi (urug' huddi supurginikiga o'xshash malla rang, shakli ham shunga o'xshab ketadi) 3 mahal 50 [grammdan ichilsa](#), ona suti ko'payadi. Yelimi suvga qo'shib ichilsa, darhol ovoz chiqadi. Shirasiga anjir qo'shib yeyilsa, sariqli kasalligini tuzatadi. Yelimiga murch, sirka qo'shib, yomon sifatli yaralarga surilsa, foyda qiladi. Soch to'kilishiga ham o'ta foydalidir. Kovrak bosh miya, skleroz, bronxit, astma, sariqli kasal, ko'k yo'tal, diabetga davo, qon ketishini to'xtatadi. Ishtahani ochadi. Ildizi siydik va buyrak og'riqlariga davo. Uch mahal qaynatmasidan 30 grammdan ichilsa, foyda qiladi (muddati 15 kun). Ildiz qaynatmasi barcha og'riqlarni bosadi. Bo'g'ilishni ketkazadi, og'riqni tuzatadi». SHuningdek Ibn Sino bu yelim-smoladan meda, buyrak, jigar, taloqli kasalliklarini davolashda hamda bachadondan qon oqishini tohtatuvchi, ishtaha ochuvchi, siydik haydovchi, bo'g'in og'rig'ini qoldiruvchi dori sifatida ham foydalangan.

Ferula L. turkumi turlarini kompleks o'rganish natijasida yangi- yangi dorivor preparatlar yaratilmoqda (Saidxodjayev va b., 1974; Melibayev va b., 1980; Malikov va b.,

1998; Kurmukov, Axmedxodjayeva, 1994). *F. tenuisecta* o'simligi estrogen xususiyatga ega moddalar saqlashi aniqlandi va shu asosda ginekologiyada qo'llaniladigan «Tefestrol» va veterinariyada ishlatiladigan «Panoferol» preparatlari yaratildi.

XULOSA

Shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda *F. foetida*, *F. kuhistanica* o'simliklarining ildizlaridan yelim (smola) olinmoqda va har yili yuzlab tonna xomashyo tayyorlanib, chetga eksport qilinmoqda. Bu holat o'simlikka zarar berib zaxiralarining kamayib ketishiga olib kelmoqda. Kovrak turkumini kelajakda ham foydalanish uchun va Kovrakning tabiiy qayta tiklanishi uchun sharoitlar yaratish kerak, shira olingan o'simlik ustini tuproq bilan ko'mish lozim. Xomashyoni eksport qilmasdan ushbu smoladan o'zimizda yangi preparatlar yaratilsa va o'simlik zaxiralaridan oqilona foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Kovrak o'simligidan foydalanish davomiyligini taminlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-apreldagi " Respublikada kovrak plantatsiyalarini tashkil etish va ularning xom – ashyosini qayta ishlash hajmlarini ko'paytirish hamda eksport qilish chora – tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3617 Qarori asosida kovrak plantatsiyalarini tashkil etish va ularning xom-ashyolarini qayta ishlash uyushmalari tashkil etilgan bo'lib bu uyushma yangi plantatsiya yaratish va o'simlik xom ashyosidan oqilona foydalanish rejalarini yaratish va tadbir qilishga etibor qaratmoqda. Bir necha ming yillar davomida insonlar tomonidan foydalanilib kelinayotgan kovrak turlarining biologiyasini o'rganish, istiqbolli turlarini ekib ko'paytirish hamda kamyob turlarining muhofazasi bilan shug'ullanish dolzarb muammo hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-apreldagi " Respublikada kovrak plantatsiyalarini tashkil etish va ularning xom – ashyosini qayta ishlash hajmlarini ko'paytirish hamda eksport qilish chora – tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3617 Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10- apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida " gi PQ – 4668 sonli qarori.

3.A. Abdullayev va b. " Biologiyadan qisqacha izohli lug'at " .
4. Ibn Sino "Tip Qonunlari" saylanma 1 jild.

5 . E.Abdunazarov va b. "Surxondaryoning dorivor o'simliklari" . o'quv qo'llanma.64-65,117-118betlar

6. Internet saytlari:

www.google.com

www.dissercat.com

www.natlib.com